

Hudning iymoni



15:00 / 30.01.2021 2355

Od qavmi javob topa olmadi. Hudga qanday javob berishni bilmay qoldilar. Ular ojiz qolganlaridan: «Ilohlarimiz senga gʻazab qilgani uchun, aqlingga kasallanib, aynib qolgan. Sening ustingda, ilohlar tomonidan yogʻilgan ofat turibdi», deyishdi.

Hud: «Albatta bu butlar toshdir, hech kimga zarar ham foyda ham bermaydi. Albatta bu butlar toshdir, gapirmaydi, eshitmaydi va koʻrmaydi ham. Albatta bu butlar, yaxshilikka ham yomonlikka ham ega emas. Biror kishiga foyda ham zarar ham yetkazishga qurbi yetmaydi. Sizlar ham yaxshilikka va yomonlikka ega emassiz. Sizlar menga foyda ham zarar ham yetkazishga qurbingiz yetmaydi. Albatta men ilohlaringizga iymon keltirmayman va ulardan qoʻrqmayman ham. **«Men sherik keltirayotganingizdan pokman»** (Hud surasi, 54-oyat) Sizlardan ham qoʻrqmayman. **«Bas, hammangiz menga**

qarshi hiyla qilaveringlar» (*Hud surasi, 55-oyat*). **«Albatta, men Robbim va Robbingiz bo'lmish Allohga tavakkal qildim»** (*Hud surasi, 56-oyat*). Barcha ishlar uning qo'l ostidadir, uning iznisiz bir yaproq ham to'kilmaydi», dedilar.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad